

**ILM – FAN TA’LIMDA INNOVATSION  
YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR,  
TAKLIF VA YECHIMLAR**

[info@bestarticle.uz](mailto:info@bestarticle.uz)

<https://sites.google.com/view/imxu/>

**BEST ARTICLE  
RESPUBLIKA ILMIY –  
ONLAYN  
KONFERENSIYASI  
2022**

**Toponim va uning lug‘aviy asosi. Lug‘aviy birlik, nom va joy nomi tushunchalarini farqlash. (Buxoro viloyati Vobkent tumani misolida)**

**Xayrullayeva Marjona Omon qizi**

(Buxoro davlat universiteti, Ozbek tilshunoslik kafedrasida o‘qituvchisi)

**Annotatsiya:** So‘z hamda toponimning o‘zaro munosabati faqrlanib o‘rganiladi. Toponim so‘z(lar)dan shakllansa ham, odatdagi so‘z(lar)dan farq qiladi. So‘z tilshunoslikning leksikologiya bo‘limida o‘rganiladi. Toponimlar esa tilshunoslikning onomastika bo‘limida tadqiq etiladi. Shu bilan birgalikda, toponimni tarix, geologiya va geografiya fanlari ham tahlil va talqin qiladi. Tadqiqotlarda ham toponimlar boshqa onomastik birliklar kabi quyidagi xususiyatlari bilan so‘zlardan farqlanib turadi.

**Tayanch tushunchalar:** so‘z, toponim, topoasos, topofarmant, indicator.

**Annotation:** The relationship between a word and a toponym is poorly studied. Although a toponym is formed from a word (s), it is different from a regular word (s). The word is studied in the lexicology department of linguistics. Toponyms are studied in the onomastics department of linguistics. At the same time, my toponym is also analyzed and interpreted by the sciences of history, geology and geography. In studies, toponyms, like other onomastic units, differ from words in the following features.

# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR

[info@bestarticle.uz](mailto:info@bestarticle.uz)

<https://sites.google.com/view/imxu/>

**BEST ARTICLE  
RESPUBLIKA ILMIY –  
ONLAYN  
KONFERENSIYASI  
2022**

Basic concepts: word, toponym, topoasos, topofarmant, indicator.

Odatda, soʻz tilshunoslik fanining leksikologiya boʻlimida ilmiy va amaliy jihatlardan tadqiq etiladi. Ularda lugʻaviy maʼno boʻladi. Toponimlar esa onomastik, shu jumladan, toponimik leksikaning tarkibiy qismi boʻlib, biror bir tabiiy geografik obyektning boshqa shunday obyektlardan farqlaydigan nomi hisoblanadi. U qanday hamda qaysi obyektlarning nomlari boʻlishidan qatʼi nazar soʻz(lar) vositasida shakllanadi. Ammo u odatdagi soʻzlardan maʼlum bir toponimik maʼno yuklanganligi bilan, nomlanish jarayonida motivlanishi bilan, topoasos, topofarmant va indikatorlarining mavjudligi, shuningdek, toponimlashuv hodisasi taʼsirida obyektlarga nom boʻla olishligi bilan farqlanib turadi. Mana shu farqlanish jarayonlari soʻz hamda toponim muammosining oʻziga xos xususiyatlarini koʻrsata olsa, oʻz-oʻzidan ularning etimologik tahliliga yoʻl ochilgan boʻladi. Toponimlarga xos boʻlgan tabiiy, ijtimoiy xususiyatlarni bilmasdan va eʼtiborga olmasdan turib, ular etimologik tadqiqining meʼyorlari toʻgʻrisida gapirish noʻrin. Ulardagi xarakterli xususiyatlarni quyidagilarga maxsus toʻxtalish asosida koʻrib oʻtish maqsadga muvofiqdir:

- 1) soʻz va toponimning oʻzaro munosabati;
- 2) toponim va uning lugʻaviy asosi;
- 3) topoasos, topofarmant va indikator tushunchalari.

Soʻz hamda toponimning oʻzaro munosabati faqrlanib oʻrganiladi. Toponim soʻz(lar)dan shakllansa ham, odatdagi soʻz(lar)dan farq qiladi. Soʻz tilshunoslikning leksikologiya boʻlimida oʻrganiladi. Toponimlar esa tilshunos

# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR

[info@bestarticle.uz](mailto:info@bestarticle.uz)

<https://sites.google.com/view/imxu/>

**BEST ARTICLE  
RESPUBLIKA ILMIY –  
ONLAYN  
KONFERENSIYASI  
2022**

likning onomastika bo'limida tadqiq etiladi. Shu bilan birgalikda, toponimni tarix, geologiya va geografiya fanlari ham tahlil va talqin qiladi. Tadqiqotlarda ham toponimlar boshqa onomastik birliklar kabi quyidagi xususiyatlari bilan so'zlardan farqlanib turadi:

1. So'z leksik ma'noga ega. Toponim esa alohida, tabiiy- geografik obyektlarning nomini ifodalab, aniqlovchilik xususiyati mavjud individual, ya'ni toponimik ma'noga ega bo'lgan atoqli ot. Bu erda toponimik ma'no termini ensiklopedik va nom qo'ygan xalqning milliyligini anglatib, geografik hamda etnografik xususiyatlarni nomoyon qiladigan ma'noda ishlatilgan. Sababi, tabiatda ma'no va mazmunsiz nomlar bo'lmaydi.

2. So'z keng ma'noda nomlash mahsuli bo'lsa, toponimlar- toponimlashuv hodisasi tufayli shakllanib, toponimik ma'noni ifodalaydigan atoqli otlarning bir turi jumlasiga kiradi. Masalan, Qayna quvdi sintaktik birlik- gap. U toponimik derivatsiya hodisasi tufayli sintaktik birlikdan bir butun so'zga aylanib, toponimga ko'chgan.

qayna+quv+-di > qayna quvdi > qaynaquvdi > Qaynaquvdi.

Katta+qo'rg'on > katta qo'rg'on – bunda esa ikki so'z birikib, so'z birikmasini shakllantirgan. Katta+qo'rg'on > katta qo'rg'on > kattaqo'rg'on > Kattaqo'rg'on - bunda ikki so'z o'zaro qo'shilib, so'z birikmasini, keyin qo'shma so'zni hosil qilgan. So'ngra bu qo'shma so'z onomastik konversiyaning toponimik konversiya turi tufayli onomastik leksika sathiga ko'chirib, toponimni yuzaga keltirgan. Demak, yuqoridagi ikki toponim qayd etilgan so'z birikmalaridan toponimlashuv

# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR

[info@bestarticle.uz](mailto:info@bestarticle.uz)

<https://sites.google.com/view/imxu/>

**BEST ARTICLE  
RESPUBLIKA ILMIY –  
ONLAYN  
KONFERENSIYASI  
2022**

hodisasining toponimik derivatsiya va onomastik konversiya jarayonlarida shakllanganligi bilan farqlanadi.

A. Hojiyev «Shuni ham qayd etish kerakki, soʻz (leksema) yasalihi haqida gap borganida, albatta, uning yasalihi asosi masalasiga alohida eʼtibor beriladi va uning qanday birlik boʻlishi haqida ham fikr bildiriladi», deydi. Ammo toponimlar soʻzdan iborat boʻlganini eʼtiborga olgan holda, uning yasalihi asosi haqida gapirish lozim. Sababi, qadimdan qoʻllanib kelinayotgan toponimlar bugungi kunda bir soʻz holiga kelgan boʻlsa ham, oldin ular bir necha soʻzdan iborat boʻlgan. Bunday toponimlarga Buxoroni koʻrsatib oʻtish mumkin.

Tilshunoslik bir butun tizim boʻlgani singari nomshunoslik ham alohida tizim hisoblanadi. Demak, soʻz va toponim orasida qoʻyilgan chegara ham, aslida, nisbiy sanaladi. Shu oʻrinda soʻzning etimologik tahlili toponimning etimologik tahlili uchun maʼlum maʼnoda asos boʻlishi eʼtiborga olinishi shart. Soʻzdan obyektlarni nomlash ehtiyoji tufayli toponimlar hosil boʻlgani kabi ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy zaruriyatlar natijasida toponimlardan soʻzlar, yaʼni lugʻaviy asoslarning yuzaga kelishi ham tabiiy hol. Masalan, Buxoro > buxorolik, Vobkent > Vobkentlik, Baxmalbof > baxmalboflik, Kulonxona > kulonxonalik va boshqalar. Tadqiqot olib borish uchun toʻplangan toponimik materiallar majmui mavjud soʻzlarning ikki guruhga boʻlinganini koʻrsatadi:

Tilda mavjud boʻlgan, ammo obyektlarni nomlash uchun tanlanmagan hamda toponimik maʼno yuklanmagan soʻzlar.

Obyektlarni nomlash ehtiyoji tufayli tanlangan va toponimik maʼnolar yuklangan lugʻaviy asoslar.

# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR

[info@bestarticle.uz](mailto:info@bestarticle.uz)

<https://sites.google.com/view/imxu/>

**BEST ARTICLE  
RESPUBLIKA ILMIY –  
ONLAYN  
KONFERENSIYASI  
2022**

Asosiy maqsadimiz – ikkinchi guruh soʻzlardan, yaʼni obyektlarni nomlash ehtiyoji tufayli tanlangan va toponimik maʼnolar yuklangan lugʻaviy asoslardan shakllangan joy nomlarini etimologik tadqiqini yaratish. Demak, soʻz bilan toponim oʻrtasida doimiy munosabat hamda uzviy aloqadorlik boʻladi. Mazkur munosabat chegaralangan holatda apellyativ va onomastik leksika sathlarida yuz beradi. Chunki nom – voqelikning (narsa, belgi kabilarning) tildagi ifodasidir. Toponimga asos boʻlgan soʻz, yaʼni lugʻaviy asos onomastik konversiya tufayli maʼlum toponimik maʼno (lar)ni ifodalashi bilan odatdagi soʻzlardan farqlanadi. Mana shu oʻrinda toponim va uning lugʻaviy asos (lar) haqida toʻxtalish lozim boʻladi.

Toponim va uning lugʻaviy asos(lar)ni tilshunoslik uchun ahamiyatli hisoblanadi. Agar toponimning lugʻaviy asosi eʼtiborga olinmasa, uning oʻzini hech qanday omil, tamoyil va usullar bilan etimologik tahlil qilib boʻlmaydi, u haqida faqat bitta gapni aytish mumkin: «Toponim falon obyektning nomi hisoblanadi». Bu esa olib borilgan tahlilning mukammal emasligini koʻrsatadi.

Toponimlarning shakllanishida obyektlarni nomlash zarurati sabab boʻlsa, ularning nomlanishi esa – oqibat. Mana shu oqibatni yuzaga keltirish uchun soʻz kerak boʻladi. Ammo hamma soʻz ham obyektlarni nomlash uchun qoʻllanavermaydi. Tanlangan va toponimik maʼno yuklangan soʻzlar, odatda, obyektlarni nomlashda ishlatiladi. Mana shu ikki jarayonning muvofiqlashishi natijasida lugʻaviy asosdan toponim shakllanadi. Ushbu holni I. G. Dobrodomov ham qayd etgan. Toponimning «soʻz+sabab > toponim» jarayonida shakllanishi va toʻplangan joy nomlari eʼtiborga olinadigan boʻlsa, tildagi barcha soʻzlar joy nomi uchun asos boʻla olmaydi. Obyektlarga nom boʻladigan soʻzlar tanlanib, ularga maxsus

# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR

[info@bestarticle.uz](mailto:info@bestarticle.uz)

<https://sites.google.com/view/imxu/>

**BEST ARTICLE  
RESPUBLIKA ILMIY –  
ONLAYN  
KONFERENSIYASI  
2022**

ma'nolar) yuklanishi haqida qisqa mulohaza bildirilgan tadqiqot mavjud. Bu fikr – obyektlarni nomlash uchun tanlanib, maxsus toponimik ma'nolar yuklangan lug'aviy asoslarning mavjudligiga bir ishora.

A.P. Dulzon "Вопросы этимологического анализа русских топонимов субстратного происхождения" nomli ishida toponim obyektlarning nomlanishi uchun alohida ma'nolar yuklangan so'zlardan shakllanishi va ularning etimologik tahlil odatdagi qonun – qoidalar bilan amalga oshirilishi lozimligini qayd etgan.

A.V. Superanskaya "Apellyativ – onoma" nomli tadqiqotida apellyativ (lug'aviy asos) so'zini toponimlarning etimologik tadqiqida qo'llash lozimligini bu tarzda bayon qilgan: «Проблема, условно обозначенная appellative – onoma, предусматривает изучение сложных случаев, где не очевидна принадлежность рассматриваемого слова капеллятивной или ономической лексики, а также случаев различных переходов лексем из одного номинативного ряда в другой».

Muallif toponimlar tadqiqiga oid keyingi tadqiqotlaridan birida apellyativlarni, ya'ni lug'aviy asoslarni odatdagi so'zlardan farqlaydi va bu haqidagi mulohazalarni quyidagicha dalillab o'tadi: «Вопросы об этимологии собственных имен были заданы участниками II Московской ономастической конференции. Ответы оказались разнообразными, вплоть до диаметрально противоположных: а) этимология имени собственного ничем не отличается от этимологии апеллятива: б) этимология имени собственного значительно отличается от этимологии апеллятива.

# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR

[info@bestarticle.uz](mailto:info@bestarticle.uz)

<https://sites.google.com/view/imxu/>

BEST ARTICLE  
RESPUBLIKA ILMIY –  
ONLAYN  
KONFERENSIYASI  
2022

Несколько забегаая вперед, позволим себе высказать нашу точку зрения: имя собственное стоит принципиально вне этимологии в традиционном понимании этого слова». Bizningcha, birinchi javob noto'g'ri, chunki istalgan bir toponimni «falon obyektning nomi» deyish bilan uning ilmiy, amaliy, tarixiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyati unutiladi. Ikkinchi javob to'g'ri. Toponimlarning etimologik tahlili unga asos bo'lgan apellyativlarning, ya'ni lug'aviy asoslarning etimologik asosi bilan bog'liq. Shunda ularning etimologik tadqiqi joy nomlarining etimologik tahliliga ma'lum ma'noda asos bo'ladi. Sababi, so'zda bir necha ma'no bo'lgani holda, u tabiiy – geografik obyektни nomlash uchun tanlanganda shu ma'nolardan bittasi bilan toponimni hosil qiladi. So'zdagi qolgan ma'nolar esa toponimda bo'lmaydi.

Apellyativ terminini turdosh so'z va lug'aviy asos deyish bilan uning so'zga teng kelishi ham qayd etilgan. Ammo toponim tarkibida so'zlardan tashqari uning shakllanishida asosiy rol o'ynaydigan topoformantlar ham uchraydi. Agar toponim so'zdan iborat bo'lsa, yaxshi. Biroq uning tarkibidagi topoformantlarni nima deb atash kerak? Bizningcha, topoformantlarning toponim shakllanishidagi rolini unutmagani holda ularni apellyativ – topoformant deyish o'rinli. Shunda joy nomining yuzaga kelishida asosiy rol o'ynagan turdosh so'zlar bilan birga topoformantlarning vazifasi ham e'tiborga olingan bo'ladi. Xullas, toponimning lug'aviy asosi deganda quyidagilar hisobga olinadi:

1. Lug'aviy asos (turdosh so'z)lar: Qayrag'och, Sarhang, Chaqmoq, O'ba, Besho'ri va boshqalar.

# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR

[info@bestarticle.uz](mailto:info@bestarticle.uz)

<https://sites.google.com/view/imxu/>

**BEST ARTICLE  
RESPUBLIKA ILMIY –  
ONLAYN  
KONFERENSIYASI  
2022**

asos bo'ladigan lug'aviy asoslar jumlasiga faqat turdosh otlargina kirib qolmay, balki son, sifat, ravish, fe'l turkumlariga oid bo'lib, tanlangan, ya'ni obyektning nomlanishiga asos bo'luvchi turdosh so'zlar ham kirishini asoslaydigan dalillardir.

2. Lug'aviy asos deb olingan so'zlar turli turkumlarga oid bo'lgani kabi, ularga obyektlarni nomlash uchun maxsus toponimik ma'nolar ham yuklangan bo'ladi. Unda leksik ma'nosi bilan birga obyektga nom sifatida tanlanishi natijasida yuzaga kelgan toponimik ma'no ham mavjud.

Turdosh so'zlardan toponimlar hosil bo'lgani kabi toponimlardan ham lug'aviy asoslar hosil bo'ladi. Toponimlardan hosil bo'lgan turdosh so'zlar, kuzatishlarga ko'ra uch xil ko'rinishda shakllanadi:

1. Toponimlar semantik o'zgarib, turdosh so'zga aylanadi: Buxoro (tuman) – buxorolik (dovun turi), Chaqmoq (qishloq) – chaqmoq (tabiat hodisasi) singlarlar.
2. Toponimlar –iy topoformantni qabul qilib, kishi hamda narsalarning nomi bo'ladi: Urganch – Urganjiy kabilar.
3. Toponimlar –lik qo'shimchasini olib, biron joyda yashovchi shaxsni anglatadigan lug'aviy asos sifatida qo'llanadi: Buxoro – buxorolik, Vobkent – vobkentlik, Chiltanob – chiltanoblik va boqalar.

Demak, lug'aviy asoslar obyektlarini nomlash uchun tanlangan va toponimik ma'no yuklangan turdosh so'zlar jumlasiga kiradi. Ularning tarkibida ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l so'z turkumiga oid so'zlarning bo'lishi tabiiy hol. Mana shu so'zlar toponimlashuv jarayoni natijasida turli obyektlarning nomiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION  
YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR,  
TAKLIF VA YECHIMLAR

[info@bestarticle.uz](mailto:info@bestarticle.uz)

<https://sites.google.com/view/imxu/>

BEST ARTICLE  
RESPUBLIKA ILMIY –  
ONLAYN  
KONFERENSIYASI  
2022

Суперанская А.В. Лингвистический аспект ономастических исследований // Вопросы ономастики, III. – Самарканд: СамГУ, 1976. – С. 5-12.

Суперанская А.В. Теоретические проблемы региональных топонимических исследований // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. – Джизак, 1985. – С. 10-11.

Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. – Самарканд: СамДЧТИ нашри, 2005. – Б.63-65.

Донигеров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Т.: Наврўз, 2017. – Б.8.

Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати (Ўзбекистоннинг жанубий районлари). – Т.: Ўқитувчи, 1988. – 135 б.

4. Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи  
Дўсийев, 1977. – Б.48